

ERGONIMLARNING YONDOSH ONOMASTIK BIRLIKLER BILAN MUNOSABATI

Rustamov Akbar Sayfulloyevich,

Buxoro viloyati hokimining davlat tili
masalalari bo'yicha maslahatchisi,

Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
(O'zbekiston)

e-mail: akbar2683@umail.uz,
akbar.rustamov.1983@mail.ru

тел: 97 301 -66-67

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro shahrida uchrovchi ergonimlarning yondosh onomastic birliklar bilan o'zaro o'xshash va farqli jihatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Buxoro ergonimlari, nominativ-farqlovchi funksiya, axborotlilik funksiyasi, reklama-targ'ibot funksiyasi, xotirlash funksiyasi, estetik funksiya

Abstract: This article provides information about the specific functional aspects of the ergonyms of the city of Bukhara, in particular, their nominative-differentiating, informative, advertising-promotional, commemorative, and aesthetic functions.

Keywords: Bukhara ergonyms, nominative-differentiating function, informative function, advertising-promotional function, commemorative function, aesthetic function.

Аннотация: В статье дается информация о функциональных особенностях эргонимов, встречающихся на территории города Бухары, в частности, об их номинативно-дифференцирующей, информативной, рекламно-пропагандистской, коммеморативной и эстетической функциях.

Ключевые слова: бухарские эргонимы, номинативно-дифференцирующая функция, информационная функция, рекламно-пропагандистская функция, коммеморативная функция, эстетическая функция.

Xalq hayot tarzining rivoji bilan u qo'llaydigan til birliklarining xossalari ham o'zgarib boradi. Til o'zgarishi davomida unda mavjud bo'lgan birliklarning xususiyatida o'zgarishlar yuz berishi tabiiy holdir. Har qanday tilning boy va o'ziga xos materiali sanalgan onomastik birliklarning amaliyotga kiritilishida o'ziga xos sabablar mavjud. Onomastik birliklar turli davrlarda ko'plab olimlar tomonida o'rganilgan, ammo har qanday davr iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa jihatlarini o'zida qamrab olish xususiyatiga ega bo'lgan birliklar atroflicha o'rganilishni talab etmoqda. Hozirgi davr hayotida ergonimlarning ahamiyati beqiyos, shundan kelib chiqib ayni davr onomastikasi uchun ham ergonimlarning bajarayotgan vazifasi, o'rni, egallab turgan mavqeyi, xalq turmush tarziga ta'siri yuqoriligini ta'kidlash joiz.

Butun dunyoda, jumladan, yurtimizda yuz berayotgan taraqqiyot jarayoni turli omillar asosida nomlanuvchi obyektlarga ham ta'sir qiladi. Faol jarayon leksik qatlAMDagi hodisalarga turli aspektlardan turib yondashishga, kreativ nazar bilan qarashga majbur qiladi. O'zbek tiliga bunday ta'sirlarning yuzaga kelishini, avvalo, turli munosabatlar asosida boshqa tillarga mansub birliklarning kirishi bilan bog'lash mumkin. Til sathida o'rganiladigan boshqa birliklarni aniq qatlam nuqtayi nazaridan tadqiq qilish mumkin, ammo bunday vaziyatda ergonimlarning kirib kelishini aniq bir til sathi jihatidan baholab bo'lmaydi. Ergonimlarning yuzaga kelishi an'anaviy yoki til sathlari qorishmasi ko'rinishida namoyon bo'lishi mumkin. Ularga onomastik birlik sifatida qarasak-da, ammo ergonimlar shakliy tuzilishini ayni bir sathda baholash xatodir. Masalan, "Buxoro neftni qayta ishslash zavodi" aksionerlik jamiyatি tarzida nomlangan ergonimik birlik, umumiyl atov birligi sifatida leksik birlik bo'lsa, uning tarkibidagi qo'shimchalar, sintaktik munosabatlarning sezilib turishi ham morfologik, ham sintaktik jihatdan tahlil qilishni taqozo qiladi. Tarkibida qo'llangan so'z yasovchilar, bir butunlik sifatida yagona atov birligi xususiyatini ifodalay olishini esa so'z yasalishi bilan daxldorlikda tahlil etish mimkin. Jumladan, qo'shma so'zlar orasidagi sintaktik aloqaning zaiflashganligi unga leksik birlik sifatida qarashga imkon yaratadi.

Buxoro shahridagi ergonimlarning ishlatalishi, ularning mavjud bo‘lish jarayoni boshqa hududlardan ma’lum darajada farqlanib turadi. Buxoro bir necha ming yillik tarixi davomida jahon sivilizatsiyasiga o‘ziga xos hissa qo‘shgan, shundan kelib chiqib, yillar davomida bu qutlug‘ makonga keluvchilar soni va turi ham oshib borgan. Buxoro shahar ergonimlari boshqa onomastik birliklarga qaraganda barqaror emas, ular kishilik jamiyatining barcha tomonlarini o‘zida qamrab olib bilganligi sababli ularning shakli, ifodalanish holati, tillararo munosabatdagi o‘rni ham serqirradir.

Ergonimlarning nomlanishida aniq bir qolipni yuzaga keltirish mumkin emas, chunki inson ehtiyojlarining ham aniq qolipi mavjud emas. Yangi terminologik birliklarga xalqning moslashuvchanligini ta’minlash uchun kuchli asos, qudratli tarixiy-ruhiy jarayon muhim rol o‘ynaydi, chunonchi Buxoro xalqi ming yillik tarixi davomida baravariga bir necha tillarni idrok etib, o‘zlashtirib, o‘zining iste’moliga moslashtira olgan. Ayni davrda Buxoro shahrida o‘zbek, tojik, rus tillaridan tashqari shaharning eski shahar qismida ingliz va boshqa tillar ham faol iste’moldadir. Bir necha tilda ergonimlarning shakllantirilishi xalq ijtimoiy turmush darajasining o‘zgarishi natijasi sanaladi. Nomlanishlarning ijobiy tomoni xalqning tillarni tabiiy bilish va qiziqish omillarini oshirishga xizmat qiladi. Faol munosabatlar asosida boshqa tillarga oid so‘zlarning ma’nosini anglashga yordam beradi.

Muassasa, tashkilot, korxona, uyushma va boshqa nomlar, avvalo ma’lum bir maqsadli ma’nolar tizimini ifodalay olish jihatidan semik birlik sanaladi. Boshqa semasiologik birliklardan asosiy farqlanib turuvchi jihatni uning maqsadli amalga oshirilishidadir. Ma’lum bir taraqqiy etgan, tarixiy uzoq davrni o‘z boshidan kechirgan makon borki, unda onomastrik birliklarning mavjudlik holati, doimiy usluksiz iste’mollilik nuqtayi nazaridan darajalanish holati kuzatiladi.

Ergonimlarning onomastik birlik sifatidagi o‘rnini dalillash uchun unga yondosh bo‘lgan boshqa onomastik birliklar bilan bir qadar solishtirish talab etiladi:

-antroponim (kishilarga atab qo‘yilgan nomlar) va ergonimlar: antroponimlar aniq bir shaxsni nomlaydi, ularning nomlanish uchun nomlovchilar qanday maqsadni ko‘zlashgan bo‘lsa-da, asosan, milliy-madaniy, e’tiqodiy qadriyatlar ustunlik qiladi,

ergonimlarda esa bu uning nomlanishining bir qisminigina tashkil qiladi, uning onim sifatida shakllantirilishidan ko‘zlangan maqsad anchagina keng. Ergonimlarning hosil qilinishida antroponimlardan ham foydalanishi avvalo muayyan muassasa, savdo do‘koni yoki boshqa ob’ektga asoschi yoki uning farzandlari, ota-onasi nomlari qo‘yilishi shaklida uchraydi. Bu esa o‘zbek xalqi urf-odatlariga mos bo‘lgan oilaviy hurmat, sodiqlik va ustuvorlik an’alarini ifodalaydi: Rustambek oshxonasi, Maftuna restorani, Mironshoh mehmonxonasi va boshqalar;

-poreonimlar (transport vositalari nomlari) va ergonimlar: transport vositalari hayvon, qush, shaxs, joy va boshqa nomlar bilan atalishi mumkin, biroq u aksariyat holatlarda atash xususiyatidan boshqa narsa uchun xizmat qilmaydi, jins mavqeyida turadi, ergonimlar esa transport vositalarini ishlab chiqaruvchi korxona nomi sifatida turni ifodalab keladi, lekin ayni bir transport vositalari savdosi bilan shug‘ullanuvchi tashkilot uchun poreonim ergonim sifatida ham qo‘llanilishi mumkin: Cobalt avtojihozlar do‘koni, BYD avtosalon;

-gidronimlar (suv havzalari nomlari) va ergonimlar: gidronimlar harakatdagi va harakatsiz suv havzalari nomini ifodalab keladi, aksariyat gidronimlar o‘zgarmas, turli xalqlar tomonidan turlicha atalishi mumkin, xolos, sun’iy hosil qilingan suv havzalariga yangi nomlar qo‘yiladi va gidronimning umumiy tarkibida yangilanish kuzatilishi seziladi, ergonimlar - taraqqiyot mahsuli, u doim o‘zgarishdadir, ayrim ergonimlarning gidronimlar bilan atalishi metonimik ko‘chim asosida yuz beradi, masalan: “Shohrud” AJ, “Jayhun” fermer xo‘jaligi, “Zarafshon” MChJ, “Anhor” choyxonasi kabi.

-fitonimlar (o‘simlik, gullar, daraxt va ularning mevalari nomlari), zoonimlar (hayvon nomlari) va ergonimlar va ergonimlar: fitonimlar va zoonimlarda aniq atash ma’nosi ifodalanadi, ularning o‘z ichki bo‘linishlari ham mavjud. Ayni chog‘da fitonimlar va zoonimlar shu mahsulot yoki jonivor bilan savdo qilishi yoki muassasa rahbarining o‘sha o‘simlik (jonivor)ni yoqtirganlik nuqtai nazaridan ergonim sifatida qo‘llanilishi mumkin: Gullar do‘koni, Viola gul do‘koni, Anor kafesi, Binafsha

maktabgacha ta'lif tashkiloti, Kanareyka qushlar do'kon; Mustang yoqilg'i quyish shoxobchasi;

-geortionimlar (turli bayram va tadbirlarga qo'yilgan nomlar) va ergonimlar: tabiat hodisalari (Navro'z, Mehrjon), diniy (Amazon va Qurbon hayitlari, Haj ibodati, Bibi Seshanbe) va maishiy hayat tarzi (nikoh to'yi, beshik to'yi, sallabandon va h.k) bilan bog'liq bayram va tadbirlar nomlari xalq tomonidan atalgan bo'lsa, rasmiy tusdagi bayram va tadbirlar sanasi alohida hujjat asosida belgilanib, nishonlanadi (Mustaqillik bayrami, O'qituvchi va murabbiylar kuni, Ipak va ziravorlar festivali). Geortionimlar asosan ergonim shakliga aholiga bayram kayfiyatini ulashuvchi xizmatlar yoki muayyan bayram yoki tadbirda qo'llanuvchi tovarlar savdosi ko'rsatilgan holatlarda ko'chadi: "Navro'z" kafesi, "Yangi yil sovg'alari" do'kon, "Haj va umra liboslari" do'kon;

-teonim (diniy nomlar) va ergonimlar: "Kavsar" ichimlik suvi, Xadicha islomiy ayol liboslari do'kon, "Halol halisa" ovqat tarmog'i;

mifonim (afsona qahramonlari va obyektlari nomlari): Afrosiyob mehmonxonasi, Gefest maishiy texnika do'kon;

-faleronimlar (orden, medal, turli mukofot nomlari) va ergonimlar: Azim Shofirkon yulduzi fermer xo'jaligi;

-artionimlar (san'at va badiiy asar nomlari) va ergonimlar: "Buxorcha" raqs ansamli, "Ming bir kecha" marosimlar uyi, "Oltin baliq" oshxonasi va boshqalar.

Yuqoridagi tahlillarda keltirilgan yondosh onomastik birliklar ergonimlarning hosil bo'lishida asos vazifasini o'tagan.

Shu bilan birgalikda ergonimlarning toponim, pragmatonim va oykodonim kabi onomastik birliklar bilan munosabatini o'rghanish jarayonida nafaqat nom olish, balki nom taqdim etishini ham kuzatish mumkin.

Toponimlar (joy nomlari) va ergonimlar: shahar onomastikasining bosh birligi toponimlardir. Toponimlar hududiy yaxlitlik, milliy birlik, yagona psixologik munosabatlarning shakllanishida muhim omil sifatida xizmat qiladi. Insonning makon qamrovi kengayib borgani sayin yirik toponimlarning kishilik jamiyatini

jipslashtirishga yo'naltirilgan psixolingvik mohiyati ham kengayib boradi yoki aksincha. Buni nima bilan izohlash mumkin? Masalan, o'z qishlog'idan chiqmagan inson uchun faqat shu hududdagilarga nisbatan yaqinlik, umumlashish ruhiyati mavjud bo'ladi; makon kengayishi bilan tuman, viloyat, respublika miqyosidagi yaqinlikka shaxs o'zida ehtiyoj sezsa boshlaydi. "Har bir joy nomining o'z tarixi bor. Ular xalq hayotining turli tomonlarini o'zida aks ettiradi. Nomlar, ko'pincha, shu hududda yashagan xalq hayoti, yashash sharoiti bilan bog'liq holda sodir bo'ladi"¹. Toponimlar kishilik jamiyatini birlashtirsa, antroponimlar yakka shaxs tushunchasini shakllantiradi. Toponimlarning hosil qilinishi tarixiy-an'anaviy, ya'ni aksariyat ergonimlar tarixiy taraqqiyot mahsulidir, ma'lum bir siyosiy vaziyat, hududiy bo'linishlar asosida yangi nomlar ham yuzaga chiqishi mumkin, ammo ergonimlar harakatchanligi, davrga moslashuvchaligi bilan farqlanib turadi, rasmiy va norasmiy ergonimlar toponimlar asosida shakllanishi mumkin. Ergonimlar avvalo maqsadli onomastik birlikdir. Ergonimlar onomastik birlik sifatida ehtiyoj, manfaat, qiziqishlar tizimini ifodalay olishi jihatidan toponimlarga nisbatan tor, antroponimlarga nisbatan kengroq vazifani bajaradi. Tadqiqot davomida toponimlardan ergonimlarning hosil qilishinishiga juda ko'p dalillar jamlandi. Masalan, "Buxoro" nomli ishlab chiqarish korxonalari, savdo maskanlari, shifoxonalar, oshxona restoran kabi ergonimlarni uchratish mumkin; boshqa tuman, shahar, qishloq nomlariga nisbatan ham shunday xulosaga kelindi.

Shu bilan birga, ergonimlarning topomin sifatida qo'llanilishi kam uchraydi. Masalan, Buxoro viloyati Romitan tumanidagi sobiq "Xalqobod" jamoa xo'jaligi Tarnaut, Nazarobod, Attoron singari o'nga yaqin aholi punktlari hududida joylashgan ekin yerlarini tasarrufiga olib, bu hududda yashagan aksariyat aholini ish bilan ta'minlagan. Lekin xalq orasida "Xalqobod" aholi punktidan kattaroq nisbatdagi norasmiy maqomdagagi toponimga aylangan bo'lib, odatda, hozirgi Tarnaut, Attoron, Mirishkor mahallalari umumlashmasi sifatida qo'llanilib kelinmoqda. Qishloq aholisi

¹Do'simov.3, Egamov X. Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati/ - Toshkent: O'qituvchi. – B.4.

bilan suhbat olib borilganda ularning aksariyat qismi o‘z aholi punkti nomini bilsa-da, “Xalqoboddanman” deb javob qaytardi.

Yoki Buxoro shahri “Islom Karimov” ko‘chasinging Buxoro kinoteatridan “Nihol” kafesigacha bo‘lgan qismini aholi norasmiy tarzda “Bahor kafesi” deb ataydi. Negaki bir paytlar bu yerda “Bahor” nomli kafe faoliyat yuritgan bo‘lib, bugungi oshxona xizmati raqobatiga dosh berolmay o‘z faoliyatini to‘xtatgan.

Pragmatonimlar (tovar-mahsulot nomlari) va ergonimlar: Tovar-mahsulot nomlari ayni bir jins tushunchasiga ega, uni ishlab chiqaruvchi muassasa esa tur mavqeyida ergonimik birlik sanaladi.

Mahsulotlarning o‘zi ham ergonom sifatida ishlatilishi mumkin: “Skrepka” konselyariya mollari do‘koni, “Bookhara” kitob do‘koni;

Shu bilan birga bozorda muvaffaqiyatga uchragan ergonimlarning keyinchalik geortonim, ya’ni mahsulot nomiga aylanib ketish holatlarini ham kuzatish mumkin. Negaki, kishilar yangi tushunchalarga ko‘pincha o‘ziga ma’qul shaklda ot qo‘yib oladi. Bu nomlar vaqtlar o‘tib me’yorga aylanishi, adabiy tilga ko‘chib o‘tishi mumkin. Gohida esa ma’lum doirada qo‘llanib, ommalashmay qolib ketadi. Masalan, “Akfa group” kompaniyasi eshik-deraza romlari, isitish qozonlari, radiatorlari kabi ko‘plab maishiy jihozlar ishlab chiqaradi. “Akfa” korxonasining, ayniqsa yangicha noodatiy xomashyodan tayyorlangan romlari iste’molchilar uchun o‘z davrida yangilik bo‘lgan edi. Natijada aholi orasida ishlab chiqarish korxonasi qaysi ekanligidan qat’ nazar metal va plastikdan tayyorlangan romlar “Akfa” deb atala boshlandi.

Issiq yoki sovuq narsani uzoq vaqt o‘z haroratida saqlaydigan maxsus idishni Termos deb ataymiz. Holbuki bunday turdag'i idishni 1892-yili shotland fizigi va kimyogari Jeyms Dyuar ixtiro qilgan. 1904-yili nemis kompaniyasi uni Thermos savdo belgisi ostida ishlab chiqara boshlaydi. Vaqt o‘tib savdo belgisi bevosita idishning nomiga aylanadi.

Yoki mashhur dengiz sayyohi Jak Iv Kusto va Jan Delorm 1943-yili Kusto va **Aqua Lung International** firmasiga asos soladi. Bu korxona nafas apparatlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashadi. *Aqua Lung* lotincha *aqua – suv* va

inglizcha *lung* – о‘pka so‘zlaridan hosil bo‘lgan. Ammo bugungi kunga kelib, Akvalang ishlab chiqargan firmasidan qat’i nazar nafas uskunasi nomiga aylangan.

Ergonomim – pragmatonim shaklidagi so‘zlarga Tefal, Ariston, Diktofon, Vazelin, Odekolon, Aspirin, Keda (sport poyabzal turi) tushunchalarini ham misol qilib keltirish mumkin.

Oykodonim (bino-inshoot nomlari) va ergonimlar: oykodonim va ergonim bir-biriga juda uyg‘un tushuncha. Negaki, har bir muassasa yoki tashkilot o‘z binosiga ega, tabiiyki o‘sha bino unga egalik qiluvchi muassasa nomi bilan ataladi. Xususan, biz “Mittivoy” deganda bolalar kiyim-kechaklari savdosi bilan shug‘ullanuvchi do‘kon bilan birga ushbu do‘kon egaligidagi Buxoro shahar 4-maktab ro‘parasidagi binoni ham tushunamiz.

Shu bilan birga “Korzinka” onimi ergonomik jihatdan savdo tarmog‘i sifatida barchaga birdek tushunarli bo‘lsada, bu so‘zning oykodonim sifatida tushunarli bo‘lishi uchun tartib raqamlarini yoki o‘sha bino joylashgan hududlar nomini ham qo‘shib ishlatishga to‘g‘ri keladi.

Vaqt o‘tib, turli iqtisodiy, siyosiy yoki boshqa ta’sirlar onimdagи ergonomimlik o‘z ahamiyatini yo‘qotib, faqatgina oykodonim qolishi mumkin. Misol uchun, No‘g‘ay karvonsaroyi yoki Abdulazizzon madrasasi nomlari biri xizmat ko‘rsatish biri esa ta’lim muassasasi nomi sifatida ergonomik qatordan joy olgan bo‘lsa, bugunga kunga kelib, bu nomlarni faqatgina bino nomi – oykodonim sifatida qo‘llaymiz.

Muayyan onim ergonimdan oykodonimga evrilishi kabi, oykodonim ergonimga aylanishi holati ham kuzatiladi. Ko‘pgina hollarda oykodonimlarning ergonimga ko‘chishi asosan biror mashhur binoni mo‘ljal sifatida belgilab, mijozlarga qulaylik yaratish maqsadida amalga oshiriladi. Masalan, Ark mehmonxonasi, Darvozai Samarqand mehmonxonasi, Chor Bakr oshxonasi, Mohi Xossa sanatoriysi, Sarrofon mehmonxonasi, Minor sayyohlik firmasi ofisi shu nomdagи tarixiy binolar yonida joylashgan.

Ba’zida esa ergonim va oykodonimning o‘zaro evrilish zanjiri bir necha bosqichda amalga oshirilishi mumkin. Misol uchun Qulbobo Ko‘kaldosh tomonidan

barpo etilgan binoda madrasa faoliyat yuritadi. Keyin esa shu yangi qurilgan mehmonxonaga va uning binosiga obyektga yaqin joylashgan tarixiy bino nomini qo‘yishadi. Mehmonxona o‘z qamrovini kengaytirib, franshiza tarzida shu nomdan foydalanish huquqini boshqa viloyatdagi tadbirkorga berdi. Natijada bir onim ostida turli makondagi quyidagicha onomastik zanjir hosil bo‘ladi:

antropomin (Ko‘kaldosh) – ergonim (Ko‘kaldosh madrasasi) – oykodonim (Ko‘kaldosh madrasasi binosi) – ergonim (Ko‘kaldosh mehmonxonasi) – oykodonim (Ko‘kaldosh mehmonxonasi binosi) – ergonim (Ko‘kaldosh mehmonxonasi tarmog‘i tarkibi).

Ko‘rinib turibdiki, ushbu qator avvalidagi Ko‘kaldosh antroponimi yoki ergonimining oxiridagi Ko‘kaldosh ergonimiga umuman aloqasi yo‘q.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, har qanday onomastik birlik o‘zaro zanjirli munosabat asosida shakllanadi. Bunday zanjir bir-birini qay darajadadir inkor qiladi va ayni chog‘da to‘ldiradi. Har qanday onomastik birlik tsuhunchalarni mavjudlashtiradi, ya’ni istalgan narsa-buyum, shaxs, o‘rin-joy, tashkilot, suv havzalari va boshqalarning nomi mavjud emas ekan, uning ijtimoiy borliqdagi holati ham nisbiydir. Bu nomlarning yashovchanligi tushunchalar yashovchanligini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqi. Elektron manba: <https://president.uz/uz/lists/view/6677>
2. “Reklama to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Elektron manba: <https://lex.uz/docs/6052631>
3. A. B. Суперанская// Общая теория имени собственного - Москва: Наука, 1973

M. Saparniyazova // “O‘zbek tili ergonimlarining struktur-semantik, lingvomadaniy va pragmatik tadqiqi” mavzusidagi filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent-202